



## MAMLAKATIMIZDA KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR INSON QADRI YO'LIDA

Hamroqulova Durdoni Sherali qizi

Xaitmurodov Sardorbek Xasan o'g'li

Abdiqahhorov Davlatbek Muzaffar o'g'li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabalari

### ANNOTATSIYA

*Ayni paytda mamlakatimizda jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalasi sifatida ko'rilayotgan Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayoni bo'lib o'tmoqda. Avvalo, ushbu siyosiy jarayon inson va uning manfaatlarini uchun degan ezgu fikr yo'lida konstitutsiyaviy islohotlar uchun xalqimizdan taklif va mulohazalar yig'ildi. Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yo'lida qonun loyihasi xalq muhokamasiga qo'yildi. Xalqimiz tomonidan qonun loyihasiga kiritilgan yangilanishlar va yangi normalar o'rganilib, ular tomonidan fikrlar almashildi. So'ng esa qonun loyihasi Oliy Majlis Senati tomonidan tasdiqlanib, xalq ovozigacha qo'yildi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasini xalq tasdiqlab beradi va qaysidir ma'noda imzolaydi. Shunda Konstitutsiya tom ma'noda mukammal va xalq Konstitutsiyasi sifatida qabul qilinadi.*

### TAHLIL

Ayni kunlarda hayotimiz va kelajagimiz uchun muhim siyosiy jarayon **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi referendumi** bo'lishi rejalashtirilgan. Mamlakatimizda isloh qilinayotgan muhim islohotlarni Konstitutsiyada kafolatlash hamda yurtdoshlarimizning farovonligini, huquq va erkinliklarini yanada kafolatlash maqsadida bosh qomusimizga o'zgartirish va qo'shimchalar





kiritilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning talab va istaklari o'laroq yangilanish o'z navbatida demokratik davlatning muhim elementidir. Zero, ushbu jarayon davomida xalqimizning taklif va istaklari muhim o'rganilib, saralangan takliflar ekspert va olimlar tomonidan norma shakliga keltirilib, qonun loyihasiga kiritildi. **Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev** inson qadri tamoyili asosida olib borayotgan siyosati doirasida Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish tashabbusi bilan referendum o'tkazish g'oyasini ilgari surdi.

Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish uchun, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi muhim jarayonlardan o'tib, mukammallik asosida ishlab chiqildi. So'ngra yangilanayotgan Konstitutsinining *65 foizi* tubdan o'zgartirilib, *128 moddadan 155 ta moddaga* oshdi. *1-moddaga* muhim norma qo'shilib, *“O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”* sifatida belgilanmoqda. Bu o'z navbatida mamlakatimiz maqomini yanada oshirib, boshqaruv shaklini Konstitutsiya darajasida kafolatlanishini ta'minlamoqda.

Shuningdek, eng muhim o'zgarish sifatida baholanayotgan yangi *25-modda* xalqimizning e'tibor markazida bo'lmoqda. Ushbu moddada o'lim jazosi taqiqlanishi belgilanmoqda. Zotan, *2008 yildan buyon mamlakatimizda o'lim jazosi bekor qilingan* bo'lsada konstitutsida belgilab qo'yilmagan edi. Aynan ushbu islohotlar jarayonida ushbu masala ham chetda qolmagani inson hayoti muhim va ustun ekanligini ko'rsatib berdi.

Yangilanayotgan Konstitutsiyada yana bir muhim yangilanish sifatida qaralayotgan normalar o'qituvchilarning huquqiy maqomini kafolatlash, majburiy mehnat to'g'risidagi yangi norma, mehnatga haq to'lashdagi imtiyozlar, advokatlik faoliyatining kafolatlari hamda boshqa ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar qo'shilmoqda.

Yangilanayotgan Konstitutsiyada ta'lim olish huquqini yanada kafolatlashga ham katta e'tibor qaratildi. Xususan, *“fuqarolar davlat ta'lim*





*tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishiga haqli"* degan yangi norma qo'shilishi kelgusida oliy ta'lim muassasalarida davlat grandlari soni oshib borishini kafolatlaydi. Shuningdek, oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga egaligi belgilab qo'yiloqda.

### XULOSA

Yangilanayotgan Konstitutsiya asosan inson huquq va erkinliklarida ko'p o'zgarishlari bilan xalqimiz e'tibor markazida bo'lmoqda. Xalqchilik asosida tayyorlangan Yangi Konstitutsiya qabul qilinmasidan, xalqimiz tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinmoqda. Bu islohotlari inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari fafolatlari yo'lida davlat siyosatining muhim faoliyati desak bo'ladi. Zotan, so'nngi yillarda mamlakatimizda inson huquq va manfaatlari yo'lida muhim islohotlar amalga oshirildi. Xalqimizning dunyoqarashi va ertangi kunga bo'lgan orzu umidlari o'zgardi. Inson qadri tamoyilida qilingan va qilinayotgan islohotlarni Konstitutsiyada kafolatlash muhim degan g'oya bilan, bugun xalq Konstitutsiyasi qabul qilinish arafasida turibdi. O'ylaymanki, Yangilanayotgan Konstitutsiyaga ovoz berish jarayoni ya'ni Referendumda xalqimiz befarq bo'lmasdan, o'z kelajagi uchun ovoz beradi.

